Tomorqa xo'jaliklari faoliyatini tahlil qilishda statistik modellar va metodlardan foydalanish yo'nalishlari	855
Turobov Sherzod Alisherovich	
Совершенствование порядка расчёта и взимания НДС в узбекистане: аналитический подход	860
Бисенбаев Шарьяр Куанишбай ули	
Mintaqaviy iqtisodiyotda inson kapitalini raqamli transformatsiyalash masalalari	864
Yusubboeva Dinora Qudrat qizi	
Iqlim o'zgarishlari va rekreatsiya turizmining kelajagi: muammolar va yechimlar	870
Shaymanova Nigora Yusupovna	
Sirdaryo viloyatining turizm imkoniyatlari va o'ziga xos turizm resurslari	875
Tursunova Gulmira Rabbonovna	
Samarqand viloyatida investitsion-innovatsion faollikni oshirish holati va investitsiyalarning tarkibiy xususiyatlari	883
Bektemirov Abdumalik Bektemirovich, Axrorov Abbos Aslamjon o'g'li	
Global innovatsion indekslar va o'zbekiston: rivojlanish yo'nalishlari va bosqichlari	889
Bekmurodova Gavhar Adham qizi	



GLOBAL INNOVATION INDEKSLAR VA O'ZBEKISTON: RIVOJLANISH YO'NALISHLARI VA BOSQICHLARI

Bekmurodova Gavhar Adham qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Bank ishi kafedrası katta o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya: Mazkur maqolada Global innovatsion indeks (GII)ning mazmun-mohiyati, mezonlari va xalqaro ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonning ushbu indeksdagi o'rni tahlil qilinib, past natijalarning asosiy sabablari ko'rsatib o'tilgan. Davlatning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish, ilm-fan va texnologiyalarni tijoratlashtirish, kadrlar salohiyatini oshirish hamda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagi yo'nalishlar chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekistonning innovatsion reytinglarda yuqori o'rinlarni egallashiga to'sqinlik qilayotgan omillar – investitsion muhit, ilmiy faoliyatga ajratilayotgan mablag', xususiy sektor faolligi kabi mezonlar asosida amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Global innovatsion indeks, innovatsion salohiyat, O'zbekiston, innovatsion infratuzilma, raqamli iqtisodiyot, ilmiy tadqiqotlar, texnologik rivojlanish, investitsion muhit, bilimlar iqtisodiyoti.

Abstract: This article explores the concept, structure, and global significance of the Global Innovation Index (GII). It provides an analysis of Uzbekistan's current position in the index and identifies key factors contributing to its relatively low ranking. The study highlights essential aspects such as the development of national innovation infrastructure, commercialization of science and technology, enhancement of human capital, and expansion of the digital economy. Based on the analysis, the article presents practical recommendations aimed at improving Uzbekistan's standing in international innovation rankings. Furthermore, it identifies the main obstacles to innovation progress, including investment climate limitations, insufficient funding for research, and low private sector engagement.

Key words: Global Innovation Index, innovation potential, Uzbekistan, innovation infrastructure, digital economy, scientific research, technological development, investment climate, knowledge economy.

Аннотация: В данной статье раскрыта сущность, структура и международное значение Глобального инновационного индекса (GII). Проведён анализ позиции Узбекистана в этом индексе, а также рассмотрены основные причины его низкого рейтинга. Особое внимание уделено формированию инновационной инфраструктуры страны, коммерциализации науки и технологий, повышению кадрового потенциала и развитию цифровой экономики. В статье обоснованы ключевые направления и разработаны практические предложения по улучшению показателей Узбекистана в международных инновационных рейтингах. Также выделены факторы, препятствующие продвижению Узбекистана в GII — инвестиционный климат, объёмы финансирования научных исследований, активность частного сектора и другие.

Ключевые слова: Глобальный инновационный индекс, инновационный потенциал, Узбекистан, инновационная инфраструктура, цифровая экономика, научные исследования, технологическое развитие, инвестиционная среда, экономика знаний.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida mamlakatlar taraqqiyoti ko'proq innovatsion salohiyat, ilmiy-tadqiqot va texnologik rivojlanish ko'rsatkichlari bilan baholanmoqda. Ayniqsa, davlatlarning Global innovatsion indeks (Global Innovation Index — GII) kabi nufuzli xalqaro reytinglardagi o'rni, ularning raqobatbardoshligi, intellektual resurslardan foydalanish darajasi va kelajakdagi iqtisodiy muvaffaqiyatlarini belgilovchi strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Global innovatsion indeks — dunyo mamlakatlarida innovatsion siyosatning holati, infratuzilmaning rivojlanishi, ta'lim va ilm-fanga yo'naltirilgan investitsiyalar, innovatsion mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish kabi mezonlar asosida baho beruvchi xalqaro reyting tizimidir. Bu indeksda yuqori o'rinni egallash davlatning innovatsion jozibadorligini, xorijiy sarmoya jalb etish imkoniyatlarini va raqamli iqtisodiyotga o'tish tayyorgarligini aks ettiradi.



O'zbekistonda so'nggi yillarda innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, ilmiy salohiyatni kuchaytirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va startap ekotizimini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Xususan, "Innovatsion rivojlanish strategiyasi", "Raqamli O'zbekiston – 2030" konsepsiyasi, "Yoshlar akademiyasi" kabi tashabbuslar mazkur yo'nalishdagi muhim qadamlar sifatida e'tirof etiladi. Biroq, O'zbekistonning Global innovatsion indeksdagi nisbatan past pozitsiyasi hali ham tizimli yondashuv va strategik o'zgarishlarni talab qilmoqda.

Mazkur maqolada O'zbekistonning Global innovatsion indeksdagi holati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari, shuningdek, xalqaro tajriba asosida mamlakatning innovatsion salohiyatini rivojlantirish yo'nalishlari tahlil qilinadi. Innovatsiyalarni kuchaytirish orqali O'zbekistonning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlash masalalari ilmiy asosda ko'rib chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

So'nggi o'n yilliklarda jahon miqyosida davlatlarning innovatsion salohiyatini baholashda va ularning intellektual resurslardan foydalanish darajasini aniqlashda Global innovatsion indeks (GII) muhim metodologik vositaga aylangan. Mazkur indeks davlatlarning ilmiy-tadqiqot faoliyati, innovatsion infratuzilma, oliy ta'lim darajasi, raqamli transformatsiya holati va kreativ iqtisodiyot rivoji kabi mezonlar asosida baholashni ko'zda tutadi (Cornell University, INSEAD, WIPO – Global Innovation Index, 2023).

Xalqaro miqyosdagi ilmiy tadqiqotlar, xususan Porter va Schwab (2018) tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion raqobatbardoshlik modeli, innovatsiyalarning iqtisodiy o'sish va xorijiy investitsiyalar oqimiga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Xuddi shunday, Freeman (1995) va Nelson (2000) ishlarida ham innovatsion infratuzilma, ta'lim sifati, ilmiy izlanishlarga investitsiya hajmi va davlat siyosatining ochiqligi asosiy omillar sifatida ajratib ko'rsatilgan.

O'zbekiston kontekstida olib borilgan tadqiqotlarda (Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Ilmiy-tadqiqot instituti, 2022) GII indeksining tarkibiy elementlari — ta'lim sifati, internetga keng polosali ulanish, innovatsion startaplar soni va patent faolligi darajasi — O'zbekistonning past reytingini belgilovchi muhim omillar sifatida ko'rsatiladi.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan D.Tursunov (2022) va U.Mirzayev (2023) o'z tadqiqotlarida GII reytingida yuqori pog'onalarni egallagan mamlakatlar (Shveysariya, Shvetsiya, AQSH, Janubiy Koreya) tajribasiga tayangan holda, O'zbekiston uchun quyidagi yo'nalishlarni taklif qilgan: innovatsion ekotizimni takomillashtirish, xususiyl sektorda innovatsiyaga rag'bat berish va universitet-ilmiy markaz–biznes uchligi integratsiyasini kuchaytirish.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan chop etilgan hisobotlar — masalan, WIPO (2023), World Bank (2022) va OECD (2021) hisobotlarida O'zbekistonga oid statistik ma'lumotlar cheklangan bo'lsa-da, ularning umumiy tavsiyalarida rivojlanayotgan davlatlar uchun quyidagi strategik yo'nalishlar asosiy deb qayd etilgan: ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ilmiy-tadqiqot institutlarini rag'batlantirish, innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish va raqamli tenglikni ta'minlash.

Shuningdek, N. Norova (2024) tomonidan O'zbekiston innovatsion siyosatining huquqiy bazasi, "Raqamli O'zbekiston–2030" strategiyasining amaliy natijalari va hududiy innovatsion klasterlar holati chuqur tahlil qilingan. Ushbu tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlat tomonidan innovatsiyalarni rag'batlantirishga doir dasturlar mavjud bo'lsa-da, ularni real iqtisodiyotga tatbiq etish samaradorligi hanz past darajada qolmoqda.

Xorijiy ekspertlar, jumladan, Lundvall (2016) va Rodrik (2009) tomonidan ilgari surilgan innovatsion tizim nazariyalarida davlatning faolligi, korxonalarning AR-GE (R&D) faoliyatiga jalb qilinishi, axborot almashinuvi va startap ekotizimining mavjudligi GII indeksining asosiy determinantlari sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlarda global innovatsion indeks va investitsion jozibadorlik o'rtasidagi bog'liqlik kuchli ekanligi qayd etilgan. O'zbekistonning ushbu indeksdagi o'rnini yaxshilash uchun esa innovatsiyalarni iqtisodiyotni modernizatsiyalash vositasi sifatida ko'rishga doir yondashuvlar chuqurlashtirilishi kerak.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining Global innovatsion indeks (GII) doirasidagi holati, uning tarkibiy mezonlari, ularning iqtisodiy rivojlanish va investitsion muhitga ta'siri, shuningdek, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilindi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida quyidagi yondashuvlar qo'llanildi: tizimli yondashuv, komparativ (taqqoslov) tahlil, statistik tahlil, kontent-tahlil, hamda ekspert baholash uslublari.

Tadqiqot davomida WIPO (World Intellectual Property Organization), Cornell University, INSEAD, Jahon Banki, OECD, UNESCO kabi xalqaro tashkilotlarning Global innovatsion indeksni tuzish metodologiyasi chuqur



o'rganildi. Shu bilan birga, O'zbekistonning 2020–2024 yillar oralig'ida GII reytingidagi o'zgarish dinamikasi, indikatorlar bo'yicha ko'rsatkichlari (institutsional rivojlanish, inson kapitali, ilmiy-tadqiqot faoliyati, texnologik mahsulotlar eksporti va boshqalar) tahlil qilindi.

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining “Innovatsion rivojlanish strategiyasi”, “Raqamli O'zbekiston – 2030”, “Ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish dasturi” kabi milliy hujjatlari tahlil qilinib, ularning GII indeksiga bevosita va bilvosita ta'siri aniqlashga urinish qilindi. Statistik ma'lumotlar asosida so'nggi yillardagi ilmiy tadqiqotlar, AR-GE xarajatlari, innovatsion patentlar soni, internet infratuzilmasi holati va oliy ta'limga ajratilgan byudjet mablag'lari singari indikatorlar tahlil qilindi.

Shuningdek, xalqaro tajribani o'rganish maqsadida GII reytingida yuqori o'rinlarni egallagan davlatlar — Shveysariya, Singapur, Janubiy Koreya, Shvetsiya, AQSH tajribasi tahlil qilindi va ular tomonidan qo'llanilayotgan institutsional mexanizmlar O'zbekiston sharoitiga mos holda solishtirildi. Bunda komparativ metod asosida muvaffaqiyatli innovatsion siyosat yuritayotgan mamlakatlar bilan O'zbekistonning hozirgi holati o'rtasidagi farqlar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning muhim jihatlaridan biri sifatida O'zbekistonning innovatsion ekotizimi, xususan, startup loyihalar, texnoparklar, universitetlar huzuridagi ilmiy laboratoriyalar, xususiy AR-GE markazlari faoliyati chuqur tahlil qilindi. Ularning GII indeksining indikatorlariga ta'siri, investitsion jozibadorlik, texnologik eksport, va aholi bandligi bilan bog'liqligi ko'rsatildi.

Mazkur metodologik yondashuvlar asosida, O'zbekistonning GII indeksidagi holatini tahlil qilish bilan birga, amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beruvchi chuqur empirik va kontseptual asos yaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda global miqyosda iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida innovatsiyalar, ilm-fan, texnologik taraqqiyot va raqamlashtirish ajralib turmoqda. Bu holat Global innovatsion indeks (Global Innovation Index – GII) va boshqa xalqaro reyting metodologiyalarida ham o'z aksini topmoqda. Ushbu indeks mamlakatlarning innovatsion salohiyatini, ilmiy-texnik imkoniyatlarini va amaliy innovatsiyalarni joriy etish samaradorligini baholashda muhim rol o'ynaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, GII bo'yicha yuqori natijalarga erishgan davlatlar — Shveysariya, Shvetsiya, AQSh, Gollandiya, Finlyandiya — o'z iqtisodiyotida barqaror innovatsion infratuzilma, kuchli ta'lim tizimi, yaxshi moliyalashtirish mexanizmlari va samara berayotgan texnologik transfer siyosati orqali ajralib turadi.

O'zbekiston kontekstida olib borilgan tahlillar quyidagilarni ko'rsatmoqda:

So'nggi yillarda mamlakatda “Raqamli O'zbekiston – 2030”, “Ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish strategiyasi” kabi muhim hujjatlar qabul qilindi.

Ilmiy tadqiqotlarga ajratilayotgan byudjet mablag'lari miqdori oshdi, yangi texnoparklar, innovatsion markazlar tashkil qilinmoqda.

2023-yilda O'zbekiston GII bo'yicha 132 davlat orasida 82-o'rinni egalladi. Bu natija hali ham past bo'lishiga qaramay, barqaror ijobiy dinamika kuzatilmoqda.

1-jadval. O'zbekistonning Global innovatsion indeksdagi asosiy komponentlar bo'yicha o'rni (2023-yil)

Komponent	Reytingdagi o'rin
Institutlar	72
Inson kapitali va ilm	89
Infratuzilma	76
Bozor murakkabligi	91
Biznes murakkabligi	93
Bilim va texnologik natijalar	86
Ijodiy natijalar	83

Manba: WIPO, GII 2023 hisobotlari



Tahlildan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston institutlar va infratuzilma yo'nalishlarida nisbatan yaxshi natijalarga erishgan bo'lsa-da, inson kapitali, ilmiy faoliyat va texnologik innovatsiyalarni tijoratlashtirishda hali zaifliklar mavjud.

Muammolar:

Ilmiy tadqiqotlar samaradorligi past, patentlash darajasi juda past;
Xususiy sektorning ilm-fan va innovatsiyalarga sarmoya kiritishi sust;
Oliy ta'lim muassasalari bilan ishlab chiqaruvchilar o'rtasida hamkorlik zaif;
Innovatsion infratuzilmaning viloyatlarda yetarli emasligi.

Tavsiyalar:

Innovatsion faoliyatni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish;
Ilmiy tadqiqotlarning amaliy ahamiyatini oshirish va uni iqtisodiyot bilan integratsiyalash;
Texnoparklar, startap ekotizimlarini kengaytirish;
Raqamli savodxonlik va texnologik ko'nikmalarni ta'lim tizimiga chuqur singdirish.

Global innovatsion indeksda yuqori o'rinlarni egallash O'zbekiston uchun xorijiy investitsiyalar jalb etish, barqaror raqamli iqtisodiyotga o'tish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish imkonini beradi. Bu yo'lda innovatsion salohiyatni oshirish, ilm-fan va texnologiyani iqtisodiyotga tatbiq etish eng muhim ustuvor yo'nalish bo'lib qoladi.

2 jadval. O'zbekistonning innovatsion salohiyati va GII asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha qiyosiy bahosi (2023-yil holatiga ko'ra)

Yo'nalish / Ko'rsatkich	O'zbekiston (%) yoki reytingdagi o'rni	Xalqaro o'rtacha / ilg'or davlatlar	Izohlar
Ilmiy tadqiqotlarga ajratilgan YIM ulushi	0.31%	OECD o'rtacha: 2.4%	Moliyalashtirish darajasi past, bu innovatsion faollikni cheklaydi
Patent arizalari soni (1 mln aholiga)	2.4	Janubiy Koreya: 3,374	Tijoratlashtirish darajasi juda past
Ilmiy maqolalar soni (SCOPUS bazasida)	3,987	Qozog'iston: ~12,000	Sifatli ilmiy tadqiqotlar hajmi cheklangan
Innovatsion mahsulotlar ulushi sanoatda	~7%	Xitoy: >30%	Innovatsiyalar real sektorga yetarli darajada tatbiq etilmagan
Raqamli xizmatlar eksporti (mlrd \$)	0.12	Hindiston: >150 mlrd \$	IT xizmatlari eksport salohiyati past, lekin rivojlanish potentsiali bor
Innovatsion infratuzilma (texnoparklar soni)	14	Turkiya: >85	Mahalliy texnoparklar hali yetarli darajada faol emas
Oliy ta'limda STEM sohalari ulushi	~27%	Yevropa o'rtacha: 40%	STEM yo'nalishlariga qiziqish va salohiyat oshirilishi zarur
Startap loyihalar soni (rasman ro'yxatga olingan)	350	Isroil: >7,000	Startap ekotizimi endigina shakllanmoqda

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, WIPO GII 2023, World Bank, OECD

O'zbekistonning Global innovatsion indeks (GII) doirasidagi holatini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, mamlakat hali reytinglarda yuqori o'rinlarni egallamagan bo'lsa-da, mavjud infratuzilma va resurslar asosida katta salohiyatga ega. Ayniqsa, so'nggi yillarda qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi va ilmiy-innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat dasturlari bu yo'nalishda muhim qadam bo'ldi. Biroq, ilmiy-tadqiqotlarga ajratilayotgan mablag' hajmi yetarli darajada emas. Bu esa yangi texnologiyalar ishlab chiqish va ilmiy natijalarni tijoratlashtirish jarayonlarini sustlashtiradi.

Innovatsion ko'rsatkichlarning past bo'lishi – ayniqsa patent arizalari soni va ularning amaliyotga joriy etilish darajasidagi sustlik – ilmiy muassasalar bilan ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi uzviy aloqaning zaifligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, ilmiy maqolalarning xalqaro bazalarda kam nashr qilinayotgani va IT xizmatlari eksportining pastligi ham O'zbekistonning global innovatsion makondagi ulushini cheklab qo'ymoqda.

Shu bilan birga, startap ekotizimining endi shakllanib borayotganligi, raqamli xizmatlar va texnologik yechimlarga bo'lgan talabning ortib borayotgani mamlakat uchun yangi imkoniyatlarni ochmoqda. Texnoparklar,



innovatsion markazlar, IT-akademiyalar va elektron hukumat xizmatlari sonining ko'payayotgani ijobiy siljishlar sari muhim zamin yaratmoqda. Biroq, bu yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan ishlarga tizimli yondashuv yetishmaydi. STEM ta'lim sohalarining salmog'i pastligi esa inson kapitalining innovatsion iqtisodiyot talablariga to'liq javob bermayotganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, O'zbekiston uchun Global innovatsion indeksda o'z o'rnini yaxshilash, xalqaro sarmoyadorlar e'tiborini jalb qilish va texnologik jihatdan raqobatbardosh davlatlar qatoriga qo'shilish uchun mavjud muammolarni imkoniyat sifatida ko'rib, ularga strategik yondashuvni kuchaytirish talab etiladi. Buning uchun esa ilm-fan, ta'lim, texnologiya va biznes o'rtasidagi integratsiyani chuqurlashtirish, xalqaro reyting metodologiyalariga mos islohotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonning Global innovatsion indeksdagi (GII) ishtiroki mamlakatning innovatsion salohiyati va texnologik taraqqiyot darajasini xalqaro miqyosda baholash imkonini beradi. Mazkur indeksda yuqori o'rinlarni egallash nafaqat mamlakatning global innovatsion xaritada mavqeini oshiradi, balki ichki iqtisodiy muhitda innovatsiyalarni joriy etish, raqobatbardosh ishlab chiqarish tizimini shakllantirish va xorijiy investitsiyalar oqimini kuchaytirish uchun muhim omil hisoblanadi.

GII metodologiyasi innovatsion muhitni baholashda ilmiy-tadqiqot faoliyati, ta'lim sifati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivoji, korxonalarning innovatsion faolligi, intellektual mulkni muhofaza qilish darajasi, texnologik mahsulotlar eksporti va boshqa bir qator omillarni qamrab oladi. O'zbekiston bu yo'nalishlarda muayyan yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, mavjud kamchiliklar GII reytingida yuqorilashni sekinlashtirmoqda.

Xususan, ilmiy-tadqiqotlarga ajratilayotgan mablag' hajmining pastligi, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishdagi muammolar, patentlar va innovatsion mahsulotlar sonining kamligi, raqamli xizmatlar eksportining cheklanganligi, STEM ta'lim sohalarining yetarlicha rivojlanmaganligi — GII ko'rsatkichlarining pasayishiga olib kelmoqda.

Shu munosabat bilan, O'zbekistonning Global innovatsion indeksdagi pozitsiyalarini yaxshilash, ichki innovatsion muhitni kuchaytirish va texnologik rivojlanishni jadallashtirish maqsadida quyidagi amaliy taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga (Ilmiy-TKI) ajratilayotgan byudjet mablag'larini oshirish, xususan, davlat va xususiy sektor o'rtasida innovatsiyalarni moliyalashtirishda sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish;

Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish tizimini soddalashtirish va buning uchun texnologik transfer ofislari, innovatsion markazlar va texnoparklar faoliyatini rag'batlantirish;

Intellektual mulk obyektlarini ro'yxatga olish, muhofaza qilish va xalqaro bozorlarda tijoratlashtirish mexanizmlarini kuchaytirish, bu borada patent olish tartib-taomillarini soddalashtirish;

Oliy ta'limda STEM yo'nalishlarini rivojlantirish va zamonaviy innovatsion dasturlar orqali raqamli ko'nikmalarga ega mutaxassislar tayyorlash;

Startup va innovatsion ekotizimni qo'llab-quvvatlash, xususan, "venture" kapital, grant va inkubatsiya dasturlari orqali yoshlar va kichik innovatsion loyihalarni rag'batlantirish;

Raqamli xizmatlar va texnologik mahsulotlar eksportini oshirish uchun xorijiy bozorga chiqishni soddalashtiruvchi platformalar, elektron savdo tizimlari va xalqaro texnoparklar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;

Global innovatsion indeks metodologiyasiga muvofiq indikatorlar bo'yicha milliy monitoring tizimini yaratish, shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalarni tahlil qilish va ularni milliy amaliyotga joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston uchun GII indeksida yuqorilash — bu faqat xalqaro reytingdagi pozitsiyani yaxshilash emas, balki barqaror va yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyotga o'tishning zaruriy sharti hamdir. Bu esa mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish, zamonaviy ish o'rinlarini yaratish va innovatsion taraqqiyot orqali farovonlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. (2020). "Ilm-fan va innovatsiyalar – yangi O'zbekiston taraqqiyotining asosiy omili". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. – T.: Prezident matbuot xizmati, 29-oktabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6097-son Farmoni. (2020). "Ilmiy tadqiqotlar va innovatsion faoliyatni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida". 6-oktabr.
3. World Intellectual Property Organization (WIPO). (2023). Global Innovation Index 2023: Innovation in the face of uncertainty. Retrieved from: https://www.wipo.int/global_innovation_index
4. Global Innovation Index – Country Profile: Uzbekistan. (2023). Retrieved from: <https://www.globalinnovationindex.org/>
5. Rivojlanayotgan davlatlar uchun innovatsion siyosat bo'yicha yo'riqnoma. (2021). JST (UNCTAD) va WIPO hamkorligida. BMT nashriyoti.



6. Gulyamov S.S., Sobirov A.A. (2022). Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion rivojlanish strategiyasi. – T.: "Iqtisodiyot" nashriyoti, 164 bet.
7. Ibragimov I.K., Murodova D.M. (2022). "O'zbekistonda innovatsion muhitni takomillashtirishning dolzarb yo'nalishlari". Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, №3, 75–82.
8. Rashidov N.A., Narzieva M.X. (2023). "O'zbekistonning global innovatsion reytingdagi o'rni va uni oshirish yo'llari". Innovatsion rivojlanish muammolari, №2, 41–45.
9. Norov N. (2024). "Global innovatsion indeksda O'zbekistonning ishtirokini kuchaytirishning muhim yo'nalishlari". Iqtisodiy tadqiqotlar va tahlillar jurnali, 2(1), 56–63. Retrieved from: <https://journal.tsue.uz/index.php/economy/article/view/5124>
10. Norova N.N. (2024). "Global innovatsion indeks doirasida O'zbekistonning raqamli transformatsiya siyosati: muammolar va imkoniyatlar". TDIU Ilmiy axborotnomasi, 2(3), 45–51. Retrieved from: <https://tdiu.uz/journal/nnorova-gii2024>
11. Norov A.R., Turgunova K.S. kizi. (2022). "Innovatsion infratuzilmani rivojlantirishda xorijiy tajribalar". Iqtisodiy tadqiqotlar va innovatsiyalar, 1(4), 53–59.
12. Azizova Z.X., Oripova M.B. (2023). "Ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish innovatsion rivojlanishning muhim omili sifatida". TDIU Ilmiy axborotnomasi, 4(1), 100–105.
13. Sodikov A.S. (2021). "Innovatsion rivojlanishda kadrlar salohiyatining roli". Innovatsiyalar iqtisodiyoti va boshqaruvi, №5, 28–34.
14. Nazarov N.M. (2022). "Innovatsiyalarni rag'batlantirishda soliq va moliyaviy mexanizmlarning roli". Soliq va moliya jurnali, №7, 15–21.
15. OECD. (2021). Measuring Innovation in Education 2021: What Has Changed in the Classroom? OECD Publishing. Retrieved from: <https://www.oecd.org>
16. European Innovation Scoreboard (2023). Comparative analysis of EU and neighboring countries' innovation capacity. Retrieved from: <https://ec.europa.eu>
17. UNDP Uzbekistan. (2023). "Innovatsiyalar va raqamli transformatsiya orqali barqaror taraqqiyotga erishish". <https://www.uz.undp.org>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
